



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING**  
**QARORI**

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi\_t@exat.uz

2022 года «19» мая

175-8-120-Q/22

Хокимият Шурчинского района

**Viloyat hokimining 2022-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son qarorining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 253-8-0-Q/22-sonli qarori haqida**

Mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqсадida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining 2022-yil 20-apreldagi 253-8-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror bilan:

ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari;

Besh tashabbus olimpiadasi” hamda olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini moliyalashtirish manbalari belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tumandagi mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (U.Choriyev), Jismoniy tarbiya va

sportni rivojlantirish bo‘limi (S.Ashirmatov):

a) tumanda 2022-yildan boshlab har yili an’anaviy tarzda 30-iyun – O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o‘tkaziladigan “Yoshlar forumi” doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo‘yicha quyidagi ommaviy sport musobaqalarini:

birinchi bosqichda – ko‘chalararo mahalla musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – mahallalararo sektor musobaqalari;

uchinchi bosqichda – sektor musobaqalarida g‘olib bo‘lgan mahalla jamoalari o‘rtasida tuman musobaqalari;

to‘rtinchi bosqichda – tuman musobaqalari g‘olib mahalla jamoalari o‘rtasida viloyat musobaqalarini o‘tkazish tizimini joriy etsin.

Bunda, mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san‘at, intellektual o‘yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo‘yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkaziladi;

b) 2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha quyidagi sport musobaqalarini o‘tkazish tizimini joriy etilganligi inobatga olinsin:

birinchi bosqichda – tuman musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – viloyat musobaqalari.

Tuman Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘limi (S.Ashirmatov) olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha sport musobaqalarini o‘tkazish dasturining ishlab chiqilishi, sport musobaqalari o‘tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasining yaxshilanishi va zarur sport inventarlari bilan jihozlanishi, sport musobaqalarining yuqori darajada tashkil etilishi hamda g‘olib va sovrindorlarning munosib rag‘batlantirilishini ta’minlasin.

5. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sport musobaqalarini

tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishga mas'ul etib quyidagi tashkilotlar belgilansin:

mahalla bosqichida –Xalq ta'limi bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'limi;

sektor bosqichida – sektor rahbarlari;

tuman bosqichida – tuman hokimi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, musobaqalarning har bir bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar ushbu kichik bandga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rag'batlantiriladi;

6. Olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtirishga mas'ul etib quyidagi tashkilotlar belgilansin:

tuman bosqichida – tuman hokimi, tuman Xalq ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi va tuman Sportni rivojlantirish bo'limi rahbarlari;

Bunda, musobaqalarning har bir bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar ushbu kichik bandga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rag'batlantiriladi.

7. Tuman Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'limi (S.Ashirmatov) tuman hokimligi bilan birgalikda har yili 1-fevralga qadar ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

sport musobaqalarining tuman bosqichi bo'lib o'tadigan sport infratuzilmasi obyektlarini homiylik xayriyalari hamda budjetdan tashqari mablag'larni jalb etgan holda talab darajasida tayyorlash;

ommaviy sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish uchun sport inshootlarini sport jihozlari bilan ta'minlash;

ommaviy sport musobaqalarining mahalla bosqichidan viloyat bosqichiga qadar o'tkazilgan musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarni 1, 2 va 3-darajali diplom, medal, kubok, esdalik sovg'alari bilan taqdirlash;

tashkil etiladigan boshqa sport musobaqalari tuman bosqichi g‘oliblari uchun hokim sovrinini ta’ sis etish;

sport musobaqalari davomida har bir ishtirokchining qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini qaror toptirish, ularning buyuk ajdodlarimizning mardlik va jasurlik an‘analarini munosib davom ettirishga qodir insonlar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar dasturini amalga oshirish.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), Sportni rivojlantirish bo‘limi bilan hamkorlikda bir oy muddatda mazkur qarorning maqsad va vazifalari, ommaviy sport musobaqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng yoritib borish bo‘yicha media-reja ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o‘rinbosari U.Choriyev, tuman Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i S.Ashirmatov, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i Z.Eshqulov, Xalq ta’limi bo‘limi mudiri Z.Xurramov belgilansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



Xudoyberganov B.X

Shoʻrchi tuman hokimining  
2022 yil 19 maydagi  
175-8-120-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

## Mahallalarda yoshlar oʻrtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar

### DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
<b>I. Mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shugʻullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan taʼminlash</b>					
1.	Tumandagi mavjud sport inshootlarini xatlovdan oʻtkazish.	1. Xatlov oʻtkazish boʻyicha ishchi guruh shakllantirish. 2. Ishchi guruh faoliyatini yoʻlga qoʻyish boʻyicha uslubiy yordam koʻrsatish. 3. Xatlov natijalari yuzasidan oʻtkaziladigan sport turlari boʻyicha inshootlarning moddiy-texnik bazasini taʼminlash uchun tegishli boshqarma va tashkilotlarga taklif yuborish. 4. Sport inshootlarining zarur moddiy-texnik baza bilan taʼminlanganlik holatini monitoring qilib borish.	2022-yil noyabr	-	Tuman hokimligi, Sportni rivojlantirish boʻlimi( <i>S.Ashirmatov</i> ), Xalq taʼlimi boʻlimi ( <i>Z.Xurramov</i> ),
2.	Sport musobaqalarining bosqichlari boʻlib oʻtadigan hududlar va u yerda joylashgan infratuzilma obyektlarini talab darajasida tayyorlash.	1. Ommaviy sport musobaqalarini oʻtkazish joylarini aniqlash. 2. Musobaqalarni sifatli oʻtkazish uchun maqbul sport inshootlari hamda belgilangan tartibda musobaqa jarayonlariga tayyorlash.	2022-yil iyun - dekabr	Homiylik xayriyalari hamda budjetdan tashqari mablagʻlar	Tuman hokimligi, Sportni rivojlantirish boʻlimi ( <i>S.Ashirmatov</i> ), Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi <i>Z.Eshqulov</i> )

Mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha musobaqalar samaradorligini baholash reytingini joriy etish.	1. Mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarni shakllantirish.	2022-yil may	Tuman hokimligi, Sportni rivojlantirish bo'limi(S.Ashirmatov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi Z.Eshqulov),
	2. Baholash mezonini ishlab chiqish. Bunda, har bir mahalladagi yoshlar ishtirokiga qarab, ularni "namunaviy", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga ajratish.		
	3. Baholash mezoniga asosan mahallalar reytinglarini belgilash.	2022-yil iyul - dekabr	
	4. Mahallalar reytingini yuritish uchun maxsus axborot dasturini ishga tushirish.	2022-yil sentabr	
	5. Reyting natijalariga ko'ra mahallalar samaradorligini ko'rib chiqish.	2022-yil dekabr	
	6. "Qoniqarsiz" deb topilgan mahallalarda ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil dekabr	
<b>II. Aholining keng qatlamlari, ayniqsa, o'quvchi va talaba yoshlarni sog'lomlashtirish hamda ular o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish</b>			

5.	An'anaviy tarzda ikki mavsumda o'tkaziladigan (1-mavsum 30-iyun – Yoshlar kuniga hamda 2-mavsum - Yoshlar forumiga bag'ishlangan) ommaviy sport musobaqalarining besh bosqichli tizimini joriy etish.	1. An'anaviy tarzda ikki mavsumda o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalarining nizomini ishlab chiqish.	Har yili 1-fevral		Tuman hokimligi, Sportni rivojlantirish bo'limi(S.Ashirmatov), Xalq ta'limi bo'limi (Z.Xurramov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi Z.Eshqulov),
		2. Musobaqani o'tkazish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan qo'shma qaror loyhasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Har yili 1-mart		
		3. Musobaqalarni o'tkazish muddati, joyi va sanasini belgilash. Bunda, sport musobaqalari bolalar-o'smirlar sport maktabi va umumiy o'rta ta'lim maktablarining sport inshootlarida o'tkazilishini nazarda tutish.	Har yili 1-aprel		
		4. Bolalar-o'smirlar sport maktabining trenerlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini har bir mahalla ko'chalariga birlashtirish.	Har yili 1-aprel		
<b>III. Ommaviy sport tadbirlarini tashkillashtirishda faollik ko'rsatgan tadbir ishtirokchilarini munosib rag'batlantirish</b>					
6.	Musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lgan ishtirokchilarni va mahalla yoshlar yetakchilarini rag'batlantirish tizimini joriy etish.	Musobaqalarning respublika bosqichida g'olib va sovrindor bo'lgan mahalla terma jamoa ishtirokchilarini hamda mahalla yoshlar yetakchilarini esdalik va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash.	Musobaqalar o'tkazish grafigi asosida	Ijrochilar va mahalliy budjet mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi Z.Eshqulov), Sportni rivojlantirish bo'limi(S.Ashirmatov),
7.	Ommaviy sport musobaqalari davomida o'rnatilgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, trenerlar, yoshlar yetakchilari va sportchilar faoliyatini yoritish.	Musobaqalar davomida o'zining tashabbuskorligi va tashkilotchiligi bilan alohida o'rnatilgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, trenerlar, yoshlar yetakchilari va sportchilar to'g'risida teleko'rsatuvlar tayyorlash.	Media-rejaga asosan 2022-yil davomida Rejani tasdiqlash - 2022-yil aprel	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), Tuman hokimligi

8.	Hududlarda ommaviy sport musobaqalarini tizimli ravishda o'tkazish.	Ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash: musobaqalarda g'olib va sovrindorlarni diplom, medal, kubok, esdalik sovg'alari bilan taqdirlash; sport musobaqalarining respublika (final) bosqichlari bo'lib o'tadigan hududlar infratuzilmalarini talab darajasida tayyorlash; sport inshootlarini sport jihozlari bilan ta'minlash; tuman bosqichi g'oliblari uchun hokim sovrinini ta'sis etish.	Har yili 1-fevral	Mahalliy va ijrochilar budget mablag'lari	Tuman hokimligi, Sportni rivojlantirish bo'limi (S.Ashirmatov)
<b>IV. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolar, o'quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish</b>					
9.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi tomonidan kamida 1 ta sport turi bo'yicha bepul to'garaklar faoliyatini tashkil etish.	1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ommaviylashgan va o'quvchilar tomonidan shug'ullanishga ishtiyoq bildirilgan sport turlarini aniqlash. 2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida belgilangan sport turlari bo'yicha sport to'garaklarini tashkil etish. 3. Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklari jadvalini ishlab chiqish.	2022/2023-o'quv yilidan boshlab	-	Xalq ta'limi bo'limi (Z.Xurramov), Tuman hokimligi
10.	Har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o'yin turlari bo'yicha jamoalar tuzish hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o'rtasida musobaqalar o'tkazish.	1. Sport turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish dasturini ishlab chiqish. 2. Musobaqalarni o'tkazish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan birgalikda nizom ishlab chiqish. 3. Maktablarning jamoalari o'rtasida doimiy musobaqalar o'tkazish.	2022/2023-o'quv yilidan boshlab	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Xalq ta'limi bo'limi (Z.Xurramov),